

SHASHMAQOMNING NAZARIY ASOSLARI
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ШАШМАКАМА

Maxmudova Durdona Baxtiyor Qizi

Farg'ona davlat universiteti

ANOTATSIYA

Shoshmaqom — o‘zbek musiqa san’atining eng muhim va qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, uning nazariy asoslari va ijro tamoyillari o‘rganilmoqda. Ushbu mavzuda shoshmaqomning tuzilishi, uning musiqa teoriyasi va estetik prinsiplari yoritiladi. Shoshmaqomning nazariy asoslari nafaqat musiqa, balki uning tarixiy rivojlanishi, falsafiy va madaniy jihatlari bilan ham bog‘liq. Tadqiqotda shoshmaqomning musiqiy shakllari, uning tarkibidagi maqomlar va ularning o‘zaro bog‘lanishi, ijro jarayonidagi ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratiladi. Shashmaqomning nazariy asoslari o‘zbek musiqa san’atining rivojlanishiga, uning muqaddamiyatini va zamonaviy musiqaga qo‘shgan hissasini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

АННОТАЦИЯ

Шошмакам – один из важнейших и древних жанров узбекской музыки, изучаются его теоретические основы и принципы исполнения. В этой теме будет рассмотрено строение шушмакам, его музыкальная теория и эстетические принципы. Теоретическая основа шошмакама связана не только с музыкой, но и с ее историческим развитием, философским и культурным аспектами. В исследовании особое внимание уделяется музыкальным формам шушмакама, его статусам и их взаимосвязи, а также значению исполнительского процесса. Теоретические основы Шашмакома ориентированы на развитие узбекской музыки, ее внедрение и вклад в современную музыку.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, mumtoz musiqa, nazariya, lad, tonallik, kuy

KIRISH

Sharq musiqa nazariyasiga bag‘ishlanib yozilgan ko‘pgina yozma manbalarda musiqaning, xususan musiqa tovushlarining paydo bo‘lishi haqida fikr yuritiladi. Bu o‘rinda Mahmud Sheroziy “Durratut-toj” ensiklopediyasining musiqaga bag‘ishlangan qismida hamda Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqiy” asarida keltirilgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Dastlab mualliflar inson tovushining paydo bo‘lishi, undan so‘ngra musiqa tovushining yuzaga kelishi haqida gapiradilar.

Inson o‘z qayotini boshlagan va tabiat hodisalarini anglab yetmagan dastlabki davrlarda ko‘p jihatdan ojiz bo‘lgan. Inson yashash uchun zarur vositalar izlab topish yo‘lida juda ko‘p musibat va xavf-xatarlarga duch kelgan, keyin jamoa bo‘lib yashashga majbur bo‘lgan. Jamoa bo‘lib yashashda bir-birini xavf-xatardan ogohlantirish hamda bir-biridan ogoq bo‘lish yo‘lida aloqa vositalariga ehtiyoj

sezilgan. Bunday vositalarning eng qulayi, tovush edi, deyiladi manbalarda. Dastlab tovushlar tabiat ashyolaridan, keyinchalik inson tomogʻidan, musiqa cholgʻularidan hosil etiladigan boʻladi. Shunday qilib, turli xil tovushlar paydo boʻladi. Bora-bora inson tovushlarning yoqimli va yoqimsiz turlarini ajratib ola boshlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Shashmaqom va O'zbek mumtoz musiqasi" - Bu kitobda Shashmaqomning tarixi, uning tuzilishi, asarlarining nazariy asoslari va musiqiy shakllari haqida keng qamrovli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Shashmaqomning O'zbek mumtoz musiqasidagi o'rni va rivojlanish jarayoni ham o'rganilgan.

"Mumtoz musiqaning nazariy asoslari" - Bu kitobda umumiy mumtoz musiqaning nazariy tomonlari, jumladan, Shashmaqom tizimi haqida ham batafsil so'z yuritilgan. Ushbu manba, musiqaning turli jihatlarini, shu jumladan, ritm, melodiya, va armoniya kabi aspektlarni o'rganadi.

"O'zbek musiqasi tarixi" - O'zbek musiqasi tarixi haqida yozilgan ushbu kitobda, Shashmaqomning rivojlanishi va uning musiqiy tuzilishi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Shashmaqomning sharq va o'zbek musiqasidagi o'rni haqida ilmiy fikrlar bayon etiladi.

"Shashmaqom va uning an'anaviy shakllari" - Bu ilmiy ishda Shashmaqomning an'anaviy shakllari, uslublari va ular orasidagi farqlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu asar Shashmaqom tizimining nazariy asoslari va uning tahlili haqida ham ma'lumot beradi.

"Shashmaqom va musiqa nazariyasi" - Ushbu kitobda musiqiy nazariya va Shashmaqomning tarixi, uni tashkil etuvchi musiqiy elementlar, maqomlarning xususiyatlari va tahlil qilish usullari haqida so'z boradi.

Yoqimli tovushlardan musiqa tovushlari nagʻmalar yuzaga kelgan. Nagʻmalardan esa kuy (alhon)lar yaratiladi. Kuy nagʻmalarning cheklangan vaqt oʻlchovlari boʻlmish ritmlarga boʻysindirilgan shaklidir. Musiqa tovushlarini paydo boʻlishi haqidagi olimlar tomonidan berilgan ma'lumotning qisqacha mazmuni shunday.

Lekin, sodda qilib aytilsa, kuylar ladlar bilan birga tugʻilgan. Chunki musiqa asarlari tovushlar, ritm va ladlar birikmasidan tashkil topadi. Har qanday kuy ma'lum bir chegarada, ma'lum pardalar boʻyicha harakat etadi. Agar shu pardalardan hosil etiladigan tovushlarni bir safga terib chiqilsa, musiqa asarining lad asosi yuzaga keladi. Lad -tonallik esa u yoki bu kuyning maqomi, ya'ni harakat yoʻlining ifodasidir.

Shunday qilib, maqomlarning tarixi inson musiqa asarlarini yarata boshlagan davrlarga borib takaladi, Maqomlarsiz kuylar boʻlmaydi, binobarin, maqomlar umuman musiqa asarlarining tushunchasiga kiradi. Shuni ham qayd etish kerakki, Sharq xalqlaridagi maqomlarning Forobiy zamonasigacha boʻlgan tarixiy taraqqiyot yoʻli haqida ma'lumotlar bizgacha saqlanmagan. Musiqa asarlarining dastlabki

shakllari ularning ritmikasi ham juda sodda bo‘lgan hatto ba’zi kuylarning diapazoni juda tor, ikki-uch pog‘onali bo‘lgan. Musiqa sharqshunosligi sohasida samarali ish olib borgan atoqli olim V. M. Belyasevning fikricha, hozirgi kunda o‘zbek va tojiklarda musiqa asarlarining dastlabki shakllari marosim qo‘shiqlari, bolalar qo‘shiqlari, onalar allasi, yig‘ilar vositalari bilan bizgacha yetib kelgan. Bu fikr haqiqatga yaqindir. Hatto bizgacha etib kelgan boychechak, ramazon, ona allalari, dostonchi shoirlar aytadigan qator doston va qo‘shiqlar, yor-yor qo‘shiqlari o‘zining ritmik xususiyatlari jihatidan musiqa madaniyatining dastlabki davrlariga mansub deyish mumkin.

Yozma manbalarda ko‘rsatilishicha, birinchi yaratilgan musiqa ritmi “Zarbi qadim” (“Qadimiy zarb”) deb ataladi. Bu ritm, go‘yo inson tomirining urishidan olingan bo‘lib, juda sodda “tan-tan” shaklida bo‘lgan. So‘ngra esa ritmlarning murakkabroq shakllari yuzaga kelgan. Masalan, (tana-tana), (tan-tan-tan), (tana-tana-tan), (tanna-tan) va hokazo. Bu ritmlar musiqa asarlari bilan birga yuzaga kelgan bo‘lib, keyinchalik esa Sharq xalqlarida mustaqil doira usullari tarzida ham ajralib chiqqan. Shunday qilib musiqa asarlari sodda usuldan sekin-asta murakkablasha va ularning diapazoni kengaya boradi. Musiqa tarixiy taraqqiyotining dastlabki davrlarida yashagan kuy va qo‘shiqlarni hali “maqom” - deb bo‘lmagan, albatta. Chunki. ikki, uch yoki to‘rt pog‘onali kuylar va ularning tovushqatorlari “lad” diapazonida bo‘la olmaydi. Shuning uchun aytish mumkinki, tom ma'nodagi maqomlarning ham kuy, ham lad tushunchalariniing paydo bo‘lishi Sharq xalqlari musiqa madaniyati ancha taraqqiy etgan davrlariga to‘g‘ri keladi. Maqomlarning yuzaga kelishi inson tafakkurinnng juda uzoq davrlarda olib borgan izlanishlarining samarasidir. Maqomlar insonning musiqa xaqidagi tushunchalari, musiqaviy estetik qarashlari barkamol bo‘lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan.

HUDUD	XUSUSIYATLAR	RIVOJLANISH DAVRI
BUXORO	Buxoroning klassik shakllari.	16-19 asr
SAMARQAND	Yangi shakllar va improvisatsiyalar.	17-19 asr
FARG‘ONA	Xalq musiqasining asosi sifatida qabul qilingan.	18-20 asr
TOSHKENT	Shashmaqomning zamonaviy shakllari.	20 asr

Hozirgi kunda Shashmaqomning nazariy asoslari va uning shakllari zamonaviy tadqiqotlar va musiqiy tahlillar orqali yanada chuqur o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar, Shashmaqomning zamonaviy musiqada qanday aks etishi, uning yangi shakllar va musiqiy uslublarda qo‘llanilishi haqida ham to‘plangan ma‘lumotlarga ega. Bugungi kunda Shashmaqomni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

XULOS VA TAKLIFLAR

Shashmaqomning nazariy asoslari, uning musiqiy tizimlari, ritmik tuzilmalari va melodiylari ilmiy nuqtai nazardan yanada chuqur tahlil qilinishi lozim.

Shashmaqom musiqasi nafaqat musiqa, balki o‘zbek xalqining madaniyati va tarixini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy tadqiqotlar, Shashmaqomning musiqiy va nazariy jihatlarini, uning ta‘lim va madaniyatdagi o‘rnini o‘rganishda davom etmoqda.

Shashmaqomning nazariy asoslari, uning musiqiy tizimi, tarixiy rivojlanishi, va improvisatsiyaning ahamiyati o‘zbek musiqasining ajralmas qismi bo‘lib, u zamonaviy musiqa tahlilida ham katta ahamiyatga ega. Shashmaqomning o‘rganilishi, uning kelajakka etkazilishi va rivojlanishi, xalq musiqasining saqlanishi va kengaytirilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Shashmaqomning tarixi, nazariy asoslari va ijodi haqida chuqur tushuncha hosil qilish uchun ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1. I.Rajabov “Maqom asoslari”(o‘quv qo‘llanma)Yangi asr avlodi nashriyoti 2019-y
2. O.Ibrohimov “Musiqqa tarixi” (o‘quv qo‘llanma) Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018-y.
2. Umurzakov Baxtiyor Nashmanovich "Musiqqa san'ati va uning hayotimizdagi o'rni". Jizzax 2022 y
3. Sh.Mirziyoev, "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi", Toshkent, O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017 y.